



## **O'ZBEK TILIDA SO'Z TURKUMLARI TASNIFI MASALALARI**

**Mamatova Marg'uba Ummatqul qizi**

Guliston davlat universiteti

Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7340554>

Annotatsiya.

Maqolada so'z turkumlarining daslabki o'rganilish davri va uning rivojlanish bosqichlari, So'z shuningdek o'zbek tilshunosligi, morfologiya va sintaksis bo'limlarining shakllanishiga oid tadqiqotlar tahlil qilgan. O'zbek tilida so'z turkumlari tasnifi masalalariga oid mavjud materiallar o'rganilib tegishli xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Turkum, so'z turkumlari, morfologiya, sintaksis, tilshunoslik, grammatika.

Antik davrning buyuk olimi Aristotelning «Poetika» (Poeziya san'ati haqida)[1] asarida morfologiyaga oid ilk namunalar kuzatiladi. Asarning «Til va fikr» (XIX fasl), «Nutq bo'laklari» (XX fasl), «Otlarning turlari» (XXI) kabi fasllari bevosita morfologiyaga oid qarashlarni o'z ichiga oladi. Yana shuni ham qayd etish lozimki, eramizdan oldingi 170-90 yillarda Aleksandr maktabi vakillaridan bo'lmish Dionisiy Frakiyskiy qadimgi grek tili uchun sakkizta so'z turkumini (ot, fe'l, sifatdosh, artikl, olmosh, ko'makchi, ravish, bog'lovchi) ajratib tahlil qilgan. Olimning so'z turkumlarini ajratish bo'yicha qarashlari o'zining aniqligi bilan ajralib turadi: «Ot turlanuvchi so'z turkumi bo'lib, tana yoki narsa (telonaprimer, kamen; вещь-naprimer, vosptanie) va umumiy hamda xususiyning ifodasidir: umumiy, masalan, odam, xususiy – masalan, Sokrat» [2] 8 ta so'z turkumini qayd etish XVI-XVII asrlarda kuzatiladi (slavyan tillarida). Bu M.V.Lomonosovning mashhur «Rossiyskaya grammatika»siga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Keyinroq sifatdosh sifat turkumi bilan almashtirilgan (Vostokov), undan keyin esa R.P.Pavskiy hamda F.I.Buslaev bu qatorga son turkumini alohida kiritadilar, XX asrda rus tilshunosligida so'z turkumlari qatorida yuklamalar ham mustahkam o'rin egallab, bu tizim 10 ta turkumdan iborat tarzida qat'iylashdi[3].

L.L.Bulanin so'z turkumlarini ajratish uchun me'zonlarni (kriteriya) belgilashda ma'lum tahlillardan so'ng (morfologik va sintaktik birgalikda) semantik va grammatik asosni qayd etadi Bunda so'z turkumi ma'nosi turli xil olimlar tomonidan turlicha terminlar bilan belgilanganligi qayd etilib («asosiy ma'no» – A.M.Zemskiy; «umumiy, mavhum ma'no» – A.I.Smarniskiy; «umumlashtirilgan ma'no» – hozirgi zamon rus tili, 1964; «umumlashgan –



mavhumlashgan ma'no» – A.V.Dudnikov; «leksik-grammatik ma'no» – N.S.Valgina; «kategorial ma'no» – grammatika – 1970; «tasniflovchi ma'no» – A.N.Tixonov; «grammatik ma'no» – A.N.Gvozdev, Steblin – Kamenskiy) kelinganligi, lekin bulardan hodisa mohiyatiga ko'proq «leksik ma'no» termini tanlanishi o'z isbotini topdi. Shuningdek, tasniflashda morfologik va sintaktik me'zonlar birlashtirilgani holda grammatik asos sifatida qayd etilishi ham to'g'ridir. Umuman olganda so'z turkumlariga jahondagi barcha tillarda turlicha munosabatda bo'lganligi hamda tilshunos olimlar o'zlarning ilmiy qarashlarini bayon qilganligiga qisman guvoh bo'ldik. Maqola davomida turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilshunosligida ham so'z turkumlariga bo'lgan ilmiy xususialardan bahramand bo'lamiz. Turkiy tilshunoslikda morfologiyaga oid qarashlar arab tilshunosligi ta'sirida IX-XI asrlarda shakllana boshlagan. M.Qoshg'ariy o'zining «Devonu lug'otit turk» 6 asarining katta qismini «So'z yasalishi» va «Morfologiya»ga bag'ishlangan. Asarning 2-jildi asosan olimning morfologiyaga oid qarashlarini o'zida aks ettirgan. Avvalo, olim so'zlarni uchta turkumga ajratadi va bular ichida fe'l va fe'l shakllari bo'yicha o'z qarashlarini bildirib o'tadi.

Professor A.Nurmonov ta'kidlaganidek, «M.Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari X-XI asr turkiy tillar morfologiyasi haqida to'la tasavvur beruvchi qomusiy asardir» 7. Olim asarda fe'l zamon shakllari, masdar (harakat nomi), fe'l mayllari, son shaklining ifodalanishi, hurmat shakli, bo'lishlibo'lishsizlik, nisbat shakllari haqidagi o'z qarashlarini bayon qiladi. Turkiy tilshunoslikda muallifi noma'lum bo'lgan va yozilgan o'rni munozarali holda turgan «At-tuxfatuz zakiyatu fillug'otit turkiya» 8 asarining lug'atdan keyin berilgan grammatika qismi ikki jihatdan ahamiyatli 1) asarni turkiy tillarning ilk grammatikasi deyish mumkin; 2) solishtirma (chog'ishtirma) grammatikaning ilk namunasi deyish mumkin (A.Nurmonov). Kitobning 29-89-betlari leksik-grammatik ocherk tarzida berilgan bo'lib, asosiy grammatikaga oid ma'lumotlar shu qismdadir. Ilmiy morfologiyaning shakllanish tarixi borasida maxsus ishlarda anchagina keng ma'lumot berilganligini nazarda tutgan holda, biz, bu o'rinda holatni keng sharhlashni o'zimizga maqsad qilib olmadik.

O'zbek tilshunosligida so'z turkumlari haqidagi asosiy ilmiy bahslar, avvalo, so'z turkumlari tasnifi, o'zaro munosabati, ajratiluvchi guruhlar soni va ularning tarkibi masalasidir. So'z turkumlari soni va tarkibini aniqlashda so'zlarning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini nazarda tutish keng tarqalgan. Ammo amaliyotda, asosan, so'zlarni turkumlashda, ularning semantik xususiyatiga tayanish urfga aylangan.



Soʻz turkumlari soni bularning turkumlanish tamoyillari anchadan beri oʻrganilib kelindi va kelinmoqda. Lekin har qanday usul ham soʻz turkumlarining xolis tasnifini bera olmasligiga qattiq ishongan rus tilshunosi M.N. Peterson soʻz turkumlari sonini va ular bilan bogʻliq muammolarni matn asosida oʻrganishga qaror qiladi va shu maqsadda ulugʻ rus shoiri A. S. Pushkinning "Belkin hikoyalari" ("Повсти белкина") asarini tanlaydi. Chunki uning yozishicha, hozirgacha rus tilshunosligida ham jahon tilshunosligida soʻz turkumlari haqidagi masala oʻz yechimini topgan emas. Oʻz fikrini dalillash uchun M.N. Peterson mashhur fransuz tilshunosi J. Vandirising quyidagi soʻzlarini keltiradi: "soʻzlarni turkumlash nihoyatda qiyin boʻlgani uchun hozirgacha hech kim soʻz turkumlarining manzur boʻlarli tasnifini yaratgan emas. An'anaga koʻra Yunon mintiqshunoslari ta'limotlariga borib taqaluvchi fransuz mumtoz (klassik) grammatikasi 10 ta soʻz turkumini farqlaydi. Ammo bu tasnif hech qanday tanqidga dosh bera olmaydi: "uni na faqat boshqa tillarga, balki uni yaratgan (yunon) tiliga nisbatan ham tatbiq etib boʻlmaydi" [qarang: J. Vandiri 1937, 139-bet, iqtibos M.N. Petersonniki].

M.N. Peterson 1885 yilning 22-sentyabr kuni Rossiyaning Kerensk, Penza viloyatida dunyoga kelgan. Moskva universitetining tarix-filologiya fakultetini tugatgan. Turli davrlarda turli lavozimlarga ishlagan. U qadimgi va yangi tillarni qiyosiy-tarixiy jihatdan yondashib, zamonaviy filologiya muammolari va yozuvchilar tilini oʻrganishga harakat qilgan.

M.N. Peterson Tillarni oʻqitishda oʻziga xos metodikadan foydalangan. U boshqalardek tayyor materilalardan emas, balki turli matnlarni oʻqish va tahlil qilish yoʻlini tutgan. Ushbu ishi bilan yangi uslub yaratib, hech qachon bu uslubdan chetga chiqmagan, va bu oʻz samarasini berib, rus tilida yangi stilistika yaratgan.

M.N. Peterson oʻzining 1955-yilda "О часах речи в русском языке" ("Rus tilidagi soʻz turkumlari haqida") nomli maqolasida soʻz turkumlari haqidagi masala rus

tilshunosligida ham xorij til shunosligida ham yetarli darajada oʻrganilmaganini qayd etadi. va olimlarning fikrlari bilan oʻz fikrini dalillash uchun olimlarga murojaat etadi:

1. "Rus ilmiy ana'nasida soʻz turkumlari tarkibi va tizimi haqidagi masala turlicha hal qilingan.
2. Soʻz turkumlarini tasniflash shu darajada qiyinki, hozirgacha hech kim ularning qoniqarli tasnifini yaratgan emas, ana'naga koʻra Yunon mantiqshunoslari ana'nalariga borib taqaluvchi Fransuz mumtoz grammatikasi



ularning sonini 10 ta deb ko'rsatadi, biroq bu tasnif ham hech qanday tanqidga dosh bera olmaydi: "uni hatto birinchi marta ishlab chiqqan tillarga nisbatan ham qo'llash qiyin. Biroq mazkur tasnifni batamom to'g'ri kelmaydigan tillarga nisbatan qo'llash qiyin".

Shundan keyin maullif yuqoridagi kabi iqtiboslarni istagancha keltirish mumkinligi haqida yozadi va bu masala yana so'zlarni turkumlarga ajratish masalasi alohida olingan tillar morfologiyasida bu masala yanada qoniqarsiz ekanligini qayd etadi, va o'zining maqola maqsadini yoritib beradi. Bu yerda u asosiy e'tiborini "so'z turkumlari" termini deganda nimani tushunish kerakligini aniqlashda harakat etadi.

Uning yozishicha, "so'z turkumlari" lotincha "partes orationis" terminining yunoncha " $\wedge$ spn τοῦ Χοροῦ" terminining so'zma so'z tarjimasidir. Yunoncha terminning birinchi qismi " $\wedge$ epoc" ("q ism")ni ikkinchi qismi "Xoyoç" esa logos shunoslik so'zidan tarkib topgan. Demak so'z turkumlari o'rnida "so'z turkumlari" termini bilan bir qatorda "so'z shunoslik" terminini ham qo'llash mumkin. Aslida so'z turkumlari terminini ishlatish yaxshi, u an'anaga muvofiq va o'quvchini chalg'itmaydi. Yangi termini qo'llashda o'quvchining uni tushunishi doimo kun tartibida turadi.

M.N. Peterson mazkur termin haqidagi fikrlarini quyidagicha davom ettiradi. Bu termin ijodkorlari Aleksandrya grammatikashunoslari "logos" deganda "gap"ni tushunadi. Binobarin, Yunon grammatistlari " $\wedge$ spn τοῦ Χοροῦ" deganda so'zlardan tashkil topgan gaplarni tushunganlar. Demak bu terminning aniq, muqobil ma'nosi M.N. Petersonga ko'ra "gap qismlari" tarzida tushunish kerak. Mana buning bu haqdagi aslida "so'z turkumlari" - bu "gapning qurilish materiali" desa ham bo'ladi.

Biroq boshqa tomondan, bu - bir xil o'zgarishlarni, bir xil shakllarni tavsiflovchi so'zlar guruhlaridir.

Yuqoridagilarga asoslanib so'z turkumlarini quyidagicha ta'riflash mumkin: "so'z turkumlari - bu so'zlarning gap yasaydigan (hosil qiladigan) guruhlari, turkumlaridir" [M.N. Peterson, 1955, 176-bet].

Ushbu maqola muallifining yozishicha, har qanday tilda ham so'z turkumlari miqdori, soni cheklangan. Uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichalarini bosib o'tgan so'z turkumlarining ayrimlari oldin boshqalari esa keyinroq paydo bo'lgan. Ular o'zaro turli morfologik, sintaktik va semantik (mazmuniy) munosabatlarda bo'ladi. Ularning tilidagi asosiy vazifasi tushunchalarni umumlashtirishdir [qarang: M.N. Peterson, 1955, 175-bet].



M.N. Peterson haq. Haqiqatan ham bilish jarayoni bevosita abstraktlikka (mavhumlikka) va abstraktlikdan amaliyot tomon bajariladi. Shuning uchun, soʻz turkumlari taraqqiyoti tasnifi ham bevosita kuzatishda, matnda qoʻllashda oʻrganilishi kerak. Bunday kuzatish natijasida olingan umumlashma va abstraksiyalar ya'ni til qoʻllanishining barcha sohalarida tekshirish kerak [M.N. Peterson, 1955, 179-bet].

Shuningdek, M.N. Petersonning soʻz turkumlari bilan bogʻliq material, ma'lumot lug'atlardan olinmasligi kerak. Chunki ular lug'atlarga qayta ishlanib kiritilgan boʻladi: "uni ya'ni soʻz turkumlari haqidagi material matndan olinishi kerak. Chunki til (grammatika tasarrufiga oʻtgan lug'at boyligi) muloqot vositasi boʻlib xizmat qiladi" [M.N. Peterson, 1955, 176-bet].

Shundan keyin muallif soʻz turkumlarini A. Pushkinning "Belikin hikoyalari" asosida oʻrganadi. Chunki unda rus tilining barcha morfologik xususiyatlari istifoda etilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, M.N. Peterson soʻz turkumlari taraqqiyoti haqidagi masalani rus tili misolida oʻrganishga harakat qiladi, va bunda asosiy e'tiborini "soʻz turkumlari" termini deganda nimani tushunish kerakligiga, tahlil usulini (metodini) aniqlashga va tadqiqot olib borish mumkin boʻlgan materialga qaratadi.

Biz ham M.N. Petersonning izidan borib soʻz turkumlari haqidagi masalani matn asosida oʻrganishga harakat qilidk. Tadqiqot materiali sifatida Afg'onistonda oʻzbek tilida ijod qiladigan adib Dr. Sh. Yorqinning "Yana koʻrishguncha" hikoyalar toʻplamining "Qutilish" hikoyasi kelgan barcha soʻzlarni tadqiqimiz predmeti qilib oldik. ushbu material istifoda etilgan barcha soʻzlarni qog'ozcha (kardochka)larga yozib chiqdik. Qog'ozchalarda qayd etilgan soʻzlarni grammatik turkumlarga ajratib, nihoyat faktik material asosida soʻz turkumlarining tasnifini ishlab chiqdik.

Oʻzbek tili ilmiy morfologiyasining shakllanishida S.Usmonovning xizmatlari ham beqiyos. Olimning «Oʻzbek tilida soʻzning morfologik tuzilishi» kitobi bu boradagi jiddiy tadqiqotlar sirasiga kiradi. 1976 yilda nashr etilgan "Oʻzbek tili grammatikasi" kitobida tilshunoslik fanining bir qismi sifatida oʻrganilib, u tilning grammatik qurilishini tekshirishi aytib oʻtilgan. Chunki u soʻz va gapning har bir tildagi formal-grammatik tomonlarinisoʻzning shakl oʻzgarishlarini, soʻz qoʻshishning, soʻz birikmalarining turli koʻrinishlarini, vositalarini va gapning tuzilishini, tiplarini kabi muammolarnioʻrganadi. Lekin grammatika termini tilning grammatik qurilishi maʼnosida ham qoʻllanib, bu termin keyingi maʼnoda ishlatilganda, grammatika fanining tekshirish ob'ektini



ifoda qiladi. Til xususiyatlari uning fonetik, leksik va grammatik tuzilishida aks etib, hammasi bir butun sistemani hosil qiladi, demak, tilning grammatik qurilishi uning fonetik qurilishi bilan va leksik sistemasi bilan bog'liqdir: tilning o'zaro bog'langan bo'laklarning yaxlitligidan iborat bo'lishi grammatikaning fonetika va leksikologiya bilan aloqada ekanligini tilimizdagi so'zlar orqali anglanadi. Bundan kelib chiqadiki, tilning hamma tomonlari o'zaro bog'langan, o'zaro shartlangan bo'lib, grammatik qurilish til sistemasining bir qismi ekanligi sezilib turadi. Umuman olganda, grammatika so'zlarni shakllantiradi, biriktiradi, ularning fikr anglatish vositasi sistemasidagi vazifasini namoyon qilib ko'rsatadi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan, ko'pgina tillarning grammatik qurilishida o'xshashliklar borligini ko'ramiz, lekin, ikkinchi tomondan, bir oilaga kiradigan tillarning orasida ham ma'lum farqlar mavjud. Bunda o'xshashlik nisbatan sintaksisda seziladi, farqlanish, noo'xshashlik esa so'z shakllarida kuchli hisoblanadi

Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiev, I.Rasulov, X.Doniyorovlar tomonidan nashr etilgan. Hozirgi o'zbek arabiy tili darsligida so'z turkumlarni 12 turga bo'lib mustaqil so'zlarni - ot, sifat, son, olmosh, fel, ravish; yordamchi so'zlarni - ko'makchi, bog'lovchi, yuklama; bundan tashqari modal so'zlar, undov va taqlid so'zlar tarzida o'rganganligini ko'ramiz. Lekin o'zbek tili grammatikasining praktikumi 9 kitobida esa so'z turkumlarni to'rtta katta gruppaga, turkumga ajratgan: 1. Mustaqil so'zlar - ot, sifat, son, olmosh, ravish.

2. Yordamchi so'zlar - ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

3. Undov va taqlid so'zlar.

4. Modal so'zlar.

A.Sodiqov, A.Abduazizov, M.Irisqulovlarning 1981 yilda chop etilgan "Tilshunoslik kirish" darsligida so'z turkumlarni boshqa tillar - ingliz, nemis va fransuz tillari bilan qiyoslagan holda o'rganishga, mohiyatiga yanada chuqurroq e'tibor berishga qaratilgan. Bunda so'z turkumlarni ajratishning uchta qonuniyati borligini ta'kidlaydi:

1. So'z turkumlarining kategorial belgilari.

2. So'zlarni turkumlarga ajratish prinsplari.

3. Turli tillar so'z turkumlari. Olimlar ham so'zlarni turkumlarga ajratish uchun asos bo'ladigan mezonlar, belgilar, asoslari 3 turga bo'ldi:

1. Strukturalizmga bo'lgan davr.

2. Strukturalizm davri.



3. Strukturalizmdan keyingi davr. Tilshunoslikda strukturalizm oqimi paydo bo'lgandan so'ng 30- yillargacha so'z turkumlarni uch asosiy belgisi orqali ajratgan:

1. So'zlarning leksik manosi.
2. So'zlarning morfologiya belgilari, yani so'zning grammatik formasi.
3. So'zlarning gapdagi sintaktik vazifasi

Bir so'z bilan aytganda jahon tilshunosligi taraqqiyotida til grammatikasi va morfologik xossalarini o'rganish masalasi dolzarb bo'lib turibdi. Xususan o'zbek tilining morfologik sathi va strukturasini o'rganish masalasida ham ko'plab tadqiqotlar va izlanishlar hanuz davom etmoqda. Albatta asosiy qolib va tahliliy mexanizmlar sohaning salohiyatli olimlari tomonida yaratilgan. Ammo chuqur fundamental tadqiqotlarni olib borishning ehtiyoji hanuzgacha mavjud.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Вопросы грамматического строя", Издательство академий Наук СССР Москва, 1955.
2. Мухитдинов Х., Худойберганова Д., Умиров И. ва бoshqa. Хозирги узбек адабий тили. (укув кулланма), Т., Илм-зиё, 2004.
3. Sayfullahyeva R.R. Mengliyev B.R., Voqiyeva G.H. va boshqa. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Т., fan va texnologiya, 2010.